

---

# TUMANDA SAKKIZ NAFAR O'QUVCHI MAKTABNI OLTIN MEDAL BILAN TAMOMLADI



2022-2023 o'quv yilida tumanda maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga qarashli umumta'lim maktablari soni 39 tani tashkil etdi. Mazkur ta'lim muassasalarida 20 ming 603 nafar o'quvchi tahsil oldi. O'quv yilida umumta'lim maktablarini 3 ming 122 nafar bitiruvchi tamomladi. Shundan 2 ming 94 nafar o'quvchiga 9-sinfni tugatganlik to'g'risida, 1 ming 28 nafar o'quvchiga 11-sinfni tugatganlik to'g'risidagi shahodatnomalar topshiriladi.

Sakkiz nafar o'quvchi oltin medal bilan maktabni tamomladi.

Bitiruvchilarimizga oliy o'quv yurtlari talabasi bo'lishida, mustaqil hayotda o'z o'rnilarini topishlarida omad tilaymiz!

[\*\*BIZNI ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2023-06-16 17:26:03